

**ALALIYA NUTQ NUQSONI USTIDA ISHLASH TIZIMI
KOMPONENTLARI**

*Namangan Davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti Kreativ pedagogika va
psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Voxobova Muniraxon Sadirdinovna*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada alaliya, alaliya kelib chiqish sabalari, alaliya turlari, alaliyani o'rgangan olimlar, motor alaliya, motor alaliya haqida tushuncha, alaliyaning davolash yo'llari haqida ochib berilgan*

Kalit so'zlar: *alaliya, motor alaliya, pedagog, shaxs, jamiyat, kommunikativ, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar*

Mustaqilligimizning ilk kunlaridan jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan. Hozirda mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, globallashtirish muhiti, cheksiz axborotlar oqimi davri voyaga yetib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash davrining eng ustuvor masalalaridan biriga aylangan. Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi ishlab chiqildi, shuningdek, 3-6 yoshli qizlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida «Zumradoylar davrasi» to'garaklari, zamonaviy ta'lim dasturlari joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida [9] «...maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni

tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish»¹ kabi vazifalar belgilandi, bugungi kunda kichik va katta maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, shuningdek, ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiya olishi uchun qulayliklar yaratish davlatimizning alohida e'tiborida bo'lib kelmoqda. "Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 23-moddasiga [2] binoan ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni ta'lim olishi hamda sog'lig'ini muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida maxsus ta'lim muassasalari tashkil qilingan.

Psixologik tadqiqotning tushunchalariga asoslanib (L.S.Vygotskiy, L.G.Galiguzova, A.N.Leontiev, M.I.Lisina, V.S.Muxina, A.G.Ruzskaya, E.O.Smirnova va boshqalar) biz muloqotni verbal va noverbal ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish jarayoni hamda bolaning rivojlanishining asosiy sharti, uning shaxsini shakllantirishning eng muhim omili sifatida deb ta'kidlaydi.

Muloqot va psixik jarayonlarning rivojlanish sur'ati o'rtasidagi bog'liqlik L.S.Vigotskiy, L.G.Galiguzova, A.G.Ruzskaya, E.O.Smirnova va boshqalar tomonidan o'rganilgan va tasdiqlangan.

Nutqning paydo bo'lish vaqti va rivojlanish tezligi bolalarda nutqdan oldingi davrda muloqot qanday shakllanganiga bog'liq, chunki aynan shu davr so'z yordamida amalga oshiriladigan yanada murakkab o'zaro munosabat uchun asos yaratadi. Muloqotning noverbal tomoniga A.P.Belikova, T.G. Visel, I.N. Gorelova, G.V. Kolshanskiy, V.A. Labunskaya, V.M. Shklovskiy, R. L. Berdwhistella va boshqalar asarlarida e'tibor qaragan. Mualliflar noverbal muloqot og'zaki xabarlarni kodlash va dekodlash uchun fon ekanligini ta'kidlaydilar; semantik jihatdan mazmunli axborotni mustahkamlaydi; muloqot qiluvchilarning kommunikativ va shaxsiy rivojlanish darajasi va salohiyatini baholash imkonini beradi. Mualliflar

noverbal muloqot og'zaki xabarlarni kodlash va dekodlash uchun fon ekanligini; axborotni semantik ahamiyatini mustahkamlashini; muloqot qiluvchilarning kommunikativ va shaxsiy rivojlanish darajasi va salohiyatini baholash imkonini berishini ta'kidlaydilar.

Alaliya haqida tushuncha

Alaliya - bolalarda bosh miya yarim sharlari po'stlog'idagi nutq markazlarining turli patologiyalari va etarli darajada rivojlanmaganligi sababli yuzaga keluvchi nutq buzilishi hisoblanadi. Adabiyotda (ayniqsa, horijiy) ushbu nutq buzilishiga murojaat qilish uchun "alaliya" atamasidan tashqari boshqa ko'plab atamalar qo'llaniladi. Jumladan, "tug'ma afaziya", "ontogenetik afaziya", "rivojlanish afaziyasi", "disfaziya", "nutq rivojlanishining kechikishi", "konstitutsiyaviy genezli nutq rivojlanishining kechikishi", "tilni o'zlashtirishning buzilishi" va boshqalar². Alaliyani tashxislash qiyin, chunki patologik o'zgarishlar ko'pincha homila rivojlanishida yoki erta bolalikda (uch yoshgacha) sodir bo'ladi. Tashxis qo'yishdagi qiyinchiliklarning yana bir sababi - ota-onalarning mazkur patologiya belgilariga kech ahamiyat berishi va mutaxassislarga kech murojaat etishidir. Mazkur nutq nuqsoni nutqning deyarli to'liq yo'qligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda alaliyaning tarqalishi umumiy nutq buzilishlarining 1% ni, maktab o'quvchilarida esa 0,2-0,6% ni tashkil qiladi. O'rtacha qiymatda, alaliya bolalarning 0,1 foizida uchraydi, o'g'il bolalarda bu nutq buzilishi qizlarga qaraganda 2 marta ko'proq uchraydi.

V.A.Kovshikov tomonidan taklif etilgan tizimi bo'yicha tasnif rasman tan olingan deb hisoblanadi va korreksion ishlarida keng qo'llaniladi. Unga ko'ra alaliya quyidagi shakllarga bo'linadi:

- sensor,
- motor,
- sensor-motor (aralash)³

Motor alaliyasini batafsil ko'rib chiqamiz.

Motor alaliya - bu markaziy organik xarakterdagi ekspressiv nutqning tizimli rivojlanmaganligi bo'lib, bunda semantik va sensomotor operatsiyalarning nisbiy saqlanganligi bilan birga nutqni yuzaga kelish jarayonida zarur til operatsiyalarining shakllanmaganligi bilan ifodalanadi.[7] Alaliyada nutqning fonetik va fonematik tomoni ham, leksik va grammatik tuzilishi ham biri ikkinchisi bilan chambarchas bog'liq holda buziladi.[6]

Motor alaliyaga ega bo'lgan bolalarda nutqqa taqlidchanligini shakllatirish va rivojlantirish muammosi bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Nutqqa taqlidni rivojlantirish, faol lug'atni rivojlantirish, garchi korreksion ta'limning asosiy vazifasi bilan belgilanadigan bo'lsa-da, nutq faoliyati haqidagi zamonaviy g'oyalarga asoslangan izchil korreksion tizimi hali ishlab chiqilmagan. Bu motor alaliyali bolalar bilan korreksion-logopedik ishini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Motor alaliyaga ega bo'lgan bolalar so'z boyligini chegaralanganligi, imo-ishora va amorf so'zlardan foydalanish tendensiyasini uzoq saqlanib borishi kuzatiladi. Mazkur bolalar nutqining yaqqol belgilaridan biri bu passiv va faol lug'at hajmining odatdagidan ko'ra sezilarli darajada farqlanishidir. Motor alaliyali maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p so'zlarning ma'nosini tushunishadi; ularning passiv so'z boyligi me'yor chegaralarida bo'ladi. Biroq og'zaki nutqda so'zlarni qo'llash, mavjud lug'at boyligidan faol foydalanish katta qiyinchiliklar tug'diradi. Motor alaliyasi bo'lgan bolalarda ekspressiv nutqning shakllanishiga nutq-harakat analizatorining analitik va sintetik faoliyatining buzilishi to'sqinlik qiladi⁴. Bu buzilishlar turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, jumladan: a) kinestetik oral apraksiyasi, ya'ni artikulyasion tuzilmalarni, keyinroq tovushlarning motor differentsiatsiyasini shakllanishi va mustahkamlashdagi qiyinchiliklar; b) bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tish qiyinligi; v) so'zni talaffuz etish uchun ushbu harakatlar ketma-ketligi (uning motor sxemasi)ni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va boshqalar. Avvalo, motor alaliyali bolalar nutqqa taqlidchanligi, faol lug'atining o'ziga xos xususiyatlari so'zlarning tovushli obrazlarining beqarorligi, ularni eslab qolish va

bo'g'in qatorini saqlab qolish qiyinligi bilan izohlanadi. Bolalar faol so'z boyligining kambag'alligi lug'atdan tanish so'zlarni tanlay olmaslik va nutqda tanish so'zlarni to'g'ri qo'llay olmaslikda namoyon bo'ladi.[2]

Motor Alaliya sabablari

Alaliyani o'rganishda uzoq vaqt mobaynida uning kelib chiqish sabablarini turlicha ko'rsatgan. R. Koen (1888), A. Gutsman (1924), E. Freshels (1931), M. Zeeman (1962) va boshqalarning fikricha, alaliya bolaning ona qornida yoki rivojlanish bosqichida shamollash yoki alimantar troflk moddalar almashinuvining patologik jarayoni natijasida kelib chiqadi.

Etiologik omillar ichida yetakchi o'rinda homilaning ensefalit, meningit bilan xastalanishi; rivojlanishi uchun nomaqbul sharoit; homilaning zaharlanishi; homila yoki ilk rivojlanish davrida bosh miya shikastlari; ilk bolalik davrida xastalanishlar natijasida bosh miyaning zararlanishi va boshqalar. Homiladorlik patologiyasi miya moddasining diffuz jarohatlanishiga olib keladi, tug'riq kalla-miya travmalari va chaqaloqlarasfiksiyasi nisbatan lokal buzilishlarni keltirib chiqaradi. Bosh miya po'stlog'idagi turli sohalarning jarohatlanishi, nutqiy va nutqiy bo'lmagan funksional tizim rivojlanishidagi buzilishlarni keltirib chiqaradi. Ye.M. Mastyukova (1981) neyroontogenez nuqtayi nazaridan alaliyani xarakterlay turib shuni ko'rsatib o'tadi: har qanday zararli omilning tug'ruqqacha va tug'ruqdan so'ng erta yoshlarda ta'sir ko'rsatishida, qachonki bosh miya po'stlog'i 195 www.ziyouz.com kutubxonasi hali shakllanish bosqichida bo'ladi, lokal nuqsonning mavjudligini aniq belgilash qiyin bo'ladi, chunki jarohatlanish ko'pinchatarqalgan xarakterga ega bo'ladi.[3]

Alaliyada korreksion ta'sir etish tizimi

Alaliya - tibbiy psixologik pedagogik muammo. Logopediya sohasiga, bola shaxsi va nutq rivojlanishiga yo'naltirilgan korreksion ta'sir usullari va tamoyillarini aniqlash kiradi. Sistemali uzoq davom etuvchi logopedik ishlar qator hollarda bolalarning nutqiy muloqoti uchun yetarli vositnlarni beradi, ayrim hollarda esa — elementlar nutqnigina. Nulqiy nuqsonni tabiatiga ko'ra bu muammo motor va sensor alaliya ko'rinishiga ko'ra differensial hal etiladi. Alaliyada nutq shakllanishi

har tomonlama yondashuv, nutqni rivojlanishiga yordam beruvchi va bilish faoliyatining yaxshilanishiga imkon beruvchi nutqning barcha funksiyalari rivojlanishiga e'tiborni qaratadi. Nutq va shaxsiyat ustidan bir butun har tomonlama tizimli ish olib boriladi. Bunda ontogenezda nutqiy funksiyalar rivojlanishi qonuniyatlari hisobga olinadi.

Olib boriladigan ishlar nutqiy faoliyat mexanizmlarini shakllantirishga qaratiladi: motiv, aloqa bog'lash maqsadi, bayonning ichki dasturi, uning leksik-grammatik vositalarini tanlash grammatik tuzilishi shakllantiriladi.[5] Nutqiy tajribani boyitish uchun bilimlardan ongli foydalanish uquvi rivojlantiriladi, nutqiy operatsiyalarni modellashtirishni egallash o'quvi orttiriladi.

Logoped bolalarda faol diqqati, tushunishni tarbiyalab borish bilan birgalikda, bolaning jumlaning oxirigacha eshitishga, leksik-grammatik shakllarni tushunishga, savol mohiyatini tushunishga (Nima yemoqdamiz? Nima bilan yemoqdamiz va va h.k.) o'rgatib boradi. Bolalarda leksik-grammatik shakllarni qo'llash, intonatsiya ustidan 214 www.ziyouz.com kutubxonasi ongli kuzatuvchanlik tarbiyalandi, flektiv munosabatlarni tushunish mustahkamlanadi, turli xil birikmalarda so'zlar aloqasi, so'z va grammatik strukturalar ketma-ketligi tarbiyalanadi. Ish jarayoniga turli analizatorlar eshitish, ko'rish, tnktil analizatomi jalb etish muhim. Bola buyum nomini eshitishi, kuzatib ko'rishi, imo- ishora bilan ko'rsatib berishi, nomlashi zarur. Buning natijasida bola ongida qo'shimcha bog'lanishlar yuzaga keladi, nutqiy material mustahkamlanadi. Ko'pgina analizatorlar faoliyatiga tayanib, taqqoslash va qarama- qarshi qo'yishdan foydalaniladi. I.P. Pavlov ularni differensirovkalar shakllanishining asosiy uslublari sifatida tavsiya qilgan. Ishda qo'shimcha tayanch tahlili va hisoblaridan foydalaniladi, shu jumladan, ramziylik va modellashtirish. Ko'pincha ishning o'yin shaklidan foydalaniladi, chunki u qiziqishni uyg'otadi, muloqotga ehtiyoj tug'diradi, nutqiy taqlidni, motorikaning rivojlanishiga yordam beradi, ta'simingemotsionalligini ta'minlaydi, biroq o'yinda ham bir qator hollarda bunday bolalarni maxsus o'rgatishga to'g'ri keladi, chunki ular o'yin harakatlari

shakllanmagan bo'lishi mumkin. Mashg'ulotlarning samaradorligi ko'rgazmali qurollarning mavjudligi va ulardan to'g'ri foydalanishga bog'liq.[6]

Xulosa

Shunday qilib, inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlarini o'zlashtirib o'tayotgan davrda ba'zi bir qoidalarga rioya qilsa, hamkorlik fazilatida ma'lum yutuqlarga erishadi.

Bolaning rivojlanishida uning boshqa bolalar bilan bo'ladigan muloqati muhim ahamiyatga egadir. Tengdoshlariga bo'lgan qiziqishlari bolada kattalarga bo'lgan qiziqishidan biroz keyinroq bir yoshning oxirlarida paydo bo'ladi, biroq u borgan sayin, ayniqsa, bog'cha yoshi davrida mustahkamlanib boradi.

4-5 yoshli bola uchun eng og'ir jazo - bu uni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishidan maxrum etishdir. Bolalar guruhiga tushib qolgan davrdan boshlab bolaning individual rivojlanishini uning "bolalar jamiyati" a'zolari bilan bo'lgan munosabatlarini hisobga olmay ko'rib chiqish va o'rganish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Арушанова А.Г. Речь и речевое общение детей: Кн. для воспитателей д/с. М. Мозаика - Синтез, 1999. - 222 с.
- 2.Sadirdinovna, Vokhobova Munira. "FORMATION OF SPEECH IMITATION IN CHILDREN WITH SEVERE DEGREE OF MOTOR ALALIA." Open Access Repository 4.2 (2023): 316-320.
1. Munira, V., & Shoxistaxon, T. (2024). Bolalar nutqining rivojlanishida atrof muhit va oilaning ahamiyati. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 15(1), 51-69.
- 2.Voxobova, M., & Gulmira, G. (2025). Nutqida muammolari bo'lgan bolalarga bo'lgan munosabat va ularning ijtimoiy adaptatsiyasi. *Science and Education*, 6(2), 216-219.
3. Munira, Voxidova, and Qosimova Marhabo. "OVOZ KAMCHILIKLARINING UCHRASHI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 15.1 (2024): 29.
- 4.Sadirdinovna, V. M. (2024). Autizm kelib chiqish sabablari va davolash yo'llari."

tadqiqotlar. *UZ*, 48, 710.

5.Vokhobova Munira Munojat Pòlatova Azamatovna. Alalia as dysontogenesis of speech development. *Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)*

6.Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "Corrective pedagogical work carried out in stuttering children." *Open access repository* 9.12 (2023): 372-375.

7.Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "features of the formation of imitation of speech in children with alalia speech defects." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 1001-1004. Sadirdinovna, Voxobova Muniraxon. "Autizm kelib chiqish sabablari va davolash yo'llari." *tadqiqotlar. UZ* 48.2 (2024): 7-10.

8.Munira, Voxidova, and Qosimova Marhabo. "Ovoz kamchiliklarining uchrashi va ularni bartaraf etishning pedagogik asoslari." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 15.1 (2024): 29-32.

9.SADIRDINOVNA, VOKHOBOVA MUNIRAKHAN. "Ways and methods of speech formation of children with alaliya speech defects." *Confrencea* 3.03 (2023): 231-235.

10.Sadirdinovna, Vokhobova Munira. "Formation of speech imitation in children with severe degree of motor alalia." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 316-320.

11.Munira, Voxobova, and Mirrahimova Xonzodabegim Sodiqjonovna. "Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralari." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 15.1 (2024): 33-35.

12.Sadirdinovna, V. M. (2023). Features of the formation of imitation of speech in children with alalia speech defects. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(12), 1001-1004.